



**SIRDARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**SIRDARYO VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**


*2022- YIL YANVAR-SENTABR*




## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida)

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8408,1 mln. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, 2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 110,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga toʻgʻri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 57,0 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʻzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 9,8 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 12,9 % ga o'sishi kuzatildi.


### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 57,8 mln. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4793,7 mln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,0 % ni tashkil etdi.


2021- yil yanvar-sentabr

56,9 %

2022- yil yanvar-sentabr

57,0 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 5,2 % ni (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida – 3,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 3,9 % (4,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 17,8 % (20,9 %) va quyi texnologiyalisi – 73,1 % (71,2 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,2 % (2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 137,4 %), boshqa nometall mineral mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 10,1 % (2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 87,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,7 % (2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 142,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 29,3 % (2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 91,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,9 % (2021- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 59,9 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati**  
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da \*


**Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa**




**Kepak**




**Tarkibida alkaloidlar bo‘lgan yoki bo‘lmagan, lekin gormonlar yoki antibiotiklar bo‘lmagan medikamentlar**




**O‘simlik yog‘i (tozalangan)**



**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Sellyuloza**




\* yanvar-sentabr yirik korxonalar bo‘yicha




**Aroq**




**Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar**




**Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar**




**Paxta tolasi**



**Paxta chigiti**



**Kalava ip**



2022- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,2 ming tonna boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar (2021-yilning yanvar-sentabr oyiganisbatan 12,2 % ga oshgan), 0,9 ming tonna paxta, bint va shu kabi mahsulotlar (21,8 % oshgan) hamda 47,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (15,4 % ga oshib) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<i>Yirik shoxli qoramollar uchun ozuqa, tonna</i>	16855	14603	-2252
<i>Paxta, bint va shu kabi mahsulotlar, tonna</i>	719,9	876,8	156,9
<i>Boshqa plastmassalardan qoplar va sumkalar, ming t.</i>	12,6	14,2	1,6
<i>Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.</i>	41,4	47,8	6,4
<i>Paxta tolasi, ming t.</i>	13,0	15,0	2,0
<i>O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.</i>	4,7	2,1	-2,6


yanvar-sentabr yirik korxonalar bo'yicha

### Metallurgiya sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 49,1 % ga kamaygan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 82 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 21,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 11,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 184,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 10,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 13,0 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 483,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.


### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 31,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1370,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 83,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 83,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 31,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 150,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 55,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1426,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 121,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,7 %, fizik hajm indeksi 68,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 227,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.







### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 167,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi 57,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 43,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish




2021- yil yakunlariga ko'ra, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 64,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,2 % ni, fizik hajm indeksi 137,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 248,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2021- yil yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 5,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 120,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 60,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 95,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3508,7 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,7 %) ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,9 % ga oshganligi kuzatildi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	11459,1	12186,4	727,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	99,7	149,5	49,8

yanvar-sentabr yirik korxonalar bo'yicha

**Yanvar-sentabr**
**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,9 mln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 %) ni tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	35,7	33,5	-2,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	12,2	15,1	2,9

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 7,9 % ga hamda chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 41,3% ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3730,6 mln. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 128,3 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 44,4 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-sentabr

37,4%

2022- yil  
yanvar-sentabr

34,4%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-sentabr

62,6%

2022- yil  
yanvar-sentabr


65,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 17,0 % (2021- yil yanvar-sentabr oylarida 34,2 %) ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 39,0 % , Guliston shari 17,6 % , Yangiyer shahri 9,2 % hamda Mirzaobod tumani 9,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (128,3 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod (168,7 %), Xovos (148,5 %), Guliston (136,8 %) tumanlari hamda Yangiyer shahrida (146,5%) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 39,0 %, shuningdek, Guliston shahri 17,6 % ni, Yangiyer shahri 8,6 % ni, Mirzaobod tumani 8,6 % ni tashkil etdi.*





**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib, 50,1 %, shuningdek, Guliston shahri 12,3 % ni, Guliston tumani 10,4 % ni, Mirzaobod tumani 9,8 % ni tashkil etdi.

**950,2** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-sentabr

**1494,4** mlrd. so'm


2021- yil yanvar-sentabr

**2448,7** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr




Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Guliston shahriga to'g'ri kelib, 27,7 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 17,7 % ni, Sayxunobod tumani esa 11,8 % ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati  
mlrd. so'm

884,8 mlrd. so'm  
2020- yil yanvar-sentabr

1023,2 mlrd. so'm  
2021- yil yanvar-sentabr




1281,9 mlrd. so'm  
2022- yil yanvar-sentabr



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahriga to'g'ri kelib, 39,7 % ni, shuningdek, Sirdaryo tumani 21,9 % ni, Guliston shahri esa 9,5 % ni va Yangiyer shahri 6,4 % ni tashkil etdi.

Sirdaryo viloyati




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Shirin shahri (174436,8 ming so'm), Sirdaryo tumani (13847,4 ming so'm) hamda Yangiyer shahrida (11664,4 ming so'm) o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (9496,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Sirdaryo viloyati



*o'sish sur'ati*  
*ming so'm*

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2714,4 mln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,3 % ni tashkil etdi.







**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4213,6 ming so'm bo'lgani holda, Sirdaryo tumanida– 10912,2 ming so'mni, Yangiyer shahrida – 7460,6 ming so'mni, Guliston shahrida– 6832,2 ming so'mni va Guliston tumanida – 3688,7 ming so'mni tashkil etdi.


**Sirdaryo viloyati**



o'sish sur'ati  
ming. so'm

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 2200 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 557 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 25,3 %) Guliston shahriga, 371 tasi (16,9 %) Sirdaryo tumaniga, 196 tasi (8,9 %) Yangiyer shahriga, 193 tasi (8,8 %) Boyovut tumaniga va 192 tasi (8,7 %) Mirzaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 90 ta loyiha bo'yicha 835,2 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 32568,5 ming. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 612 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 3,0 % ga kamaygan. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining o'sganligi kuzatildi.